

KORXONA XARAJATLARI VA FOYDASI, ULARNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Namangan To'qimachilik sanoati institute katta o'qituvchisi

Shaxidova Dilafruz Muxtarovna

Namangan To'qimachilik sanoati instituti talabasi

G'afforova Diyora Rahimjon qizi

Namangan To'qimachilik sanoati instituti talabasi

Hakimova Hilolaxon Husniddin qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada korxona xarajatlari va foydasining ahamiyati, ularning turlari va bugungi kunda biznes uchun qanday muhim rol o'ynashi samarali boshqarish va foydani maksimal darajaga yetkazish, shuningdek, raqobatbardoshlikni oshirish va moliyaviy barqarorlikni oshirish yoritilgan.

Kalit so'zlar: Korxona, ishlab chiqarish, foyda, xarajat, bozor, sarf, mahsulot, xomashyo, resurslar.

Аннотация: В данной статье рассмотрены затраты и выгоды предприятия важность, их виды и то, как они играют важную роль для современного бизнеса. В статье рассматриваются вопросы эффективного управления затратами и максимизации прибыли, а также повышение конкурентоспособности и финансовой устойчивости.

Ключевая слова: Предприятие, производство, прибыль, стоимость, рынок, потребление, продукт, сырье, ресурсы.

Abstract: In this article, the cost and benefits of the enterprise importance, their types and how they play an important role business today. The article covers effective cost management and profit maximization, as well as increasing competitiveness and financial stability.

Key words: Enterprise, production, profit, cost, market, consumption, product, raw materials, resources.

Kirish: Korxonalarining bozorga mahsulot yetkazib berishga bo'lgan layoqatini aniqlab beruvchi muhim omil sarf-xarajatlarning darajasini hisoblanadi. Har qanday tovarni ishlab chiqarish iqtisodiy resurs sarflarini taqazo qilib, ular ham ma'lum narxga ega bo'ladi. Korxona bozorga taklif qiladigan tovar miqdori iqtisodiy xarajatlarning (resurs narxlari) darajasiga, resurslardan foydalanish samaradorligi va tovarlar bozorida sotiladigan narxlarga bog'liq.

Xarajatlarni samarali boshqarish bugungi raqobat muhitida juda muhimdir. Korxonalar xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish uchun innovatsion

texnologiyalarni joriy etish, jarayonlarni optimallashtirish va resurslardan samarali foydalanish yo'llarini qidirishmoqda. Bu nafaqat xarajatlarni qisqartirishga, balki foydani oshirishga ham yordam beradi.

Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashda 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk dahlsizligini kafolatlash, 2026 yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish, tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60%ga yetkazish kabi vazifalar belgilangan [1].

Korxonalarining bozorga mahsulot yetkazib berishga bo'lgan layoqatini aniqlab beruvchi muhim omil sarf-xarajatlar darajasi hisoblanadi. Har qanday tovarni ishlab chiqarish iqtisodiy resurs sarflarini taqozo qiladi, ular ham ma'lum narxga ega bo'ladi. Korxona bozorga taklif qiladigan tovar miqdori iqtisodiy xarajatlar (resurs narxlari) darajasiga, resurslardan foydalanish samaradorligi va tovarlar bozorida sotiladigan narxlarga bog'liq.

Korxona xarajatlari bir necha turga bo'linadi:

1. Doimiy xarajatlar: Bu xarajatlar ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lmagan xarajatlardir. Masalan, ijara tolovlari, xodimlar maoshi.

2. O'zgaruvchan xarajatlar: Ishlab chiqarish hajmi oshgani sari o'zgaradigan xarajatlar, misol uchun, xomashyo xarajatlari.

3. Investitsiya xarajatlari: Korxona o'sishiga yonaltirilgan uzoq muddatli xarajatlar, masalan, yangi uskunalar yoki texnologiyalar sotib olish.

Ishlab chiqarish sarf-xarajatlari tarkibiga xomashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg'i va energiya uchun qilingan xarajatlar, asosiy kapital amortizatsiyasi, ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalari, foiztolovlari va boshqa xarajatlar kiradi.

Ishlab chiqarishga qilingan barcha sarf xarajatlarning puldagi ifodasi mahsulot tannarxini tashkil etadi,

Ya'ni: $T = C + V = M(1)$ dan $C = V$ yig'indi ishlab chiqarish xarajatlari yoki tannarx deb yuritiladi.

$ICHX = C = V$ yoki $TMTN = C = V(2)$ tashkil etadi.

Foydaning ahamiyati:

Foyda korxonaning o'zini o'zi moliyalashtirish, rivojlanish o'sish imkoniyatlarini belgilaydi. Foydaning ko'payishi:

1. Investitsiyalarni jalb qiladi.
2. Bozor raqobatbardoshligini oshiradi

3. Ijtimoiy mas’uliyat

Korxona foydasining mutloq miqdori uning massasini tashkil qiladi. Foyda massasining ishlab chiqarish xarajatlariga nisbati va uning foizda ifodalanishi foyda normasi deyiladi. Amaliyotda foyda normasini hisoblashning ikki usulidan foydalaniladi. Bular foydaning joriy sarflarga - korxona xarajatlariga yoki avanslangan mablag‘larga asosiy va aylanma kapital nisbatidir. Bular quyidagicha aniqlanadi:

$$P' = (P/W) \times 100 \%,$$

bu yerda: P' - foyda normasi;

P - foyda massasi;

W - ishlab chiqarish xarajatlari.

$$P' = (P/K_{\text{аванс}}) \times 100\%$$

bu yerda: P' - foyda normasi;

P - foyda massasi;

K-avans (asosiy kapital+aylanma kapital) - korxona avanslangan mablag‘lari yoki asosiy va aylanma kapitalning o‘rtacha yillik qiymati.

Foyda normasi ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmiga to‘g‘ri mutanosib hamda ishlab chiqarish xarajatlari yoki avanslangan mablag‘lar qiymatiga teskari mutanosibdir. Shu tufayli foyda normasi korxona ish samaradorligining integral ko‘rsatkichi hisoblanadi. Foydaning o‘shishiga, chiqarilayotgan mahsulot umumiy hajmi o‘zgarmagan holda ikki yo‘l bilan: ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hisobiga, yoki narxni oshirish hisobiga erishish mumkin

Xarajatlarni samarali boshqarish bugungi raqobat muhitida juda muhimdir. Korxonalar xarajatlarini kamaytirish va samaradorlikni oshirish uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish, jarayonlarni optimallashtirish va resurslardan samarali foydalanish yo‘llari qidirilmoqda.

Xulosa: Xarajatlar va foyda o‘rtasidagi muvozanat korxonaning muvaffaqiyatini belgilaydi. Bugungi kunda xarajatlarni samarali boshqarish va foydani oshirish strategiyalari korxonalarni rivojlantirishda asosiy ahamiyatga ega. Iqtisodiy sharoitlar o‘zgaruvchan bo‘lgan bir paytda, har bir korxona o‘z xarajatlarini tahlil qilib, foydasini oshirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishi lozim.

Foyda normasi korxona ish samaradorligining integral ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Foydaning o‘shishiga, chiqarilayotgan mahsulot umumiy hajmi o‘zgarmagan holda ikki yo‘l bilan: yoki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hisobiga, yoki narxni oshirish hisobiga erishish mumkin.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni. – www.lex.uz
- 2.B. Y. Xodiyev, Sh .Sh. Shodmonov “Iqtisodiyot nazariyasi” darslik Toshkent.2017
3. O'lmasov A., Vahobov A. “Iqtisodiyot nazariyasi”. Darslik. Toshkent.: Iqtisod-moliya, 2014.
4. Gaibnazarova Z.T., Isamuxametov Sh, A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik - T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2020.